

See discussions, stats, and author profiles for this publication at: <https://www.researchgate.net/publication/360069282>

O'ZBEKISTONDA GLOBAL IQLIM O'ZGARISHIGA QARSHI KURASH

Conference Paper · January 2016

CITATIONS

0

READS

10

1 author:



[Odiljon Tobirov](#)

Gulistan State University

36 PUBLICATIONS 2 CITATIONS

SEE PROFILE

Some of the authors of this publication are also working on these related projects:



Geography, ecology, tourism and education [View project](#)

**TABIIY FANLAR:
NAZARIYA, TA'LIM USULLARI
VA AMALIYOTI**

Тошкент - 2016

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
MUQIMIY NOMIDAGI QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

**TABIIY FANLAR:
NAZARIYA, TA'LIM USULLARI
VA AMALIYOTI**

**Professor-o'qituvchilar, magistrilar va iqtidorli
talabalarning ilmiy va ilmiy-uslubiy
maqolalari to'plami**

III

TOSHKENT - 2016

- | | |
|----------------|---------------------|
| 2. Andijon | 9. Surxondaryo |
| 3. Farg'ona | 10. Buxoro |
| 4. Namangan | 11. Navoiy |
| 5. Sirdaryo | 12. Xorazm |
| 6. 6. Jizzax | |
| 7. 7.Samarqand | 13. Qoraqlpog'iston |

O'quvchilarning raqamlar o'rnida qaysi ob'ekt yoki joyni o'quvchi aniqlab belgilagan nazorat daftaridagi javoblari asosida baholanadi hamda jurnalda belgilanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ta'kidlash mumkinki bu usul yordamida nazorat ishlari olib borilganda o'quvchilarda quyidagi bosqichlar kuzatiladi:

- 1- bosqich: O'rganilgan materialni sezgi organlari orqali qabul qiladi;
- 2- bosqich: Tahlil qiladi;
- 3- bosqich: Abstrak tafakkur hosil bo'ladi;
- 4- bosqich: Yodda saqlaydi;
- 5- bosqich: Amalda qo'llaydi;
- 6- bosqich: Natijani tekshiradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, maktablarda geografiya darslarida xaritaviy usuldan foydalanish nafaqat nazorat ishlari balki mavzuni mustaxkamlash davomida ham o'quvchilarda hudud va ob'ektlarni joylashgan o'rni, chegaralari va o'ziga xos xususiyatlari, umuman xarita legendasi yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash va baholash imkonini beradi hamda har bir o'quvchi o'zi mustaqil sheriklari ko'magisiz bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O'zbekiston Respublikasi XTV Respublika ta'lim markazi gografiyadan uzviylashtirilgan o'quv dasturi asosida nazorat ishlarini o'tkazish bo'yicha metodik tavsiya (5-9 sinflar uchun) . -Toshkent: "Qaldirg'och", 2010.
- 2.Maktab geografiya darsliklari- 1998 – 2010 yillar.
- 3.O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi 8- sinf atlası Toshkent, 2011.

O'ZBEKISTONDA GLOBAL IQLIM O'ZGARISHIGA QARSHI KURASH

G'.Berdiyev, O.Tobirov, M.Madaminov

Bugun iqlim o'zgarishlarining halokatli oqibatlaridan himoyalaniş muammolari xalqaro anjumanlarda chuqur tahlil etilmoqda. Jumladan, 2002 yil 26 avgust - 4 sentyabr kunlari Janubiy Afrika Respublikasining iqtisodiy poytaxti Yoxannesburg shahrida bo'lib o'tgan Barqaror rivojlanish bo'yicha Butunjahon Sammitida ham ham ushbu muammoga ustivor e'tibor berildi. Mazkur sammitga tayyorgarlik ko'rish davrida, Birlashgan Millatlar Tashkilotining sobiq Bosh kotibi Kofi Annan, suv va energiyani tejash, yerning maxsuldorligini oshirish (sahrolanishni to'xtatish) barqaror rivojlanishni ta'minlashda hal qiluvchi omillar ekanini alohida ajratib ko'rsatdi. Qabul qilingan "Yoxannesburg Deklarasiyasi"da mazkur sohalar bo'yicha, barcha bo'g'inlarda aniq strategik chora-tadbirlarni

amalga oshirish da'vat etilgan. Zero, xalqaro va milliy darajada bo'lgan siyosiy qarorlar va kelishilgan harakatlarsiz iqlim o'zgarishi masalasini hal etish mumkin emas. Shularni hisobga olgan holda, xalqaro hamjamiyat bu masala bilan quyidagicha shug'ullanadi:

BMTning Iqlim O'zgarishi bo'yicha Doiraviy Konvensiyasi – iqlim tizimini saqlab qolishga qaratilgan xalqaro harakatlar va majburiyatlarning asosiy tamoyillarini belgilaydi.

BMTning Iqlim O'zgarishi bo'yicha Doiraviy Konvensiyasi Kioto Protokoli – issiqxona gazlari emissiyasini qisqartirish bo'yicha majburiyatlarni miqdor jihatidan ta'riflaydi.

Iqlim O'zgarishi bo'yicha Hukumatlararo Ekspertlar Guruhining Tavsiyanomasi – iqlim o'zgarishi masalasi bo'yicha barcha ilmiy ma'lumotlar to'planib, hukumatlarga ma'lumotnomalar beriladi.

BMTning Iqlim o'zgarishi haqidagi Doiraviy Konvensiyasi 1992 yilda Rio de Janeyroda 155 mamlakat tomonidan imzolangan bo'lib, uning asosiy maqsadi: “atmosfera issiqxona effekti hosil qiluvchi gazlar miqdorini iqlim tizimiga xavfli antropogen ta'sirni bartaraf etadigan darajada kamaytirish” dan iborat. Konvensiya 1993 yildan kuchga kirib, unda mamlakatlarning umumiy tamoyillari va majburiyatlari belgilangan. Konvensiya haqida quyiroqda batafsil so'z yuritiladi.

BMTning iqlim o'zgarishi haqidagi Doiraviy Konvensiyasiga qo'shimcha hujjat bo'lgan Kioto protokoli esa 1997 yilda Yaponiyaning Kioto shahrida 160 dan ortiq mamlakat ishtirokida imzolangan. Ushbu protokol asosida sanoati rivojlangan mamlakatlar issiqxona gazlarini kamaytirish bo'yicha miqdoriy majburiyatlarni qabul qilganlar.

Iqlim O'zgarishi bo'yicha Hukumatlararo Ekspertlar Guruh - 1988 yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit Dasturi va Xalqaro meteorologiya tashkiloti hamkorligida iqlim tizimini saqlab qolish bo'yicha xalqaro va milliy choralarni muvofiqlashtirish uchun ilmiy asosga ega ma'lumotlarni taqdim etish maqsadida tashkil qilingan. Guruh o'tgan davr mobaynida (1988 yildan buyon) 4 ta dokladni tayyorlab yakuniga etkazdi. Birinchi Baholash Dokladi 1990 yilda tayyorlangan bo'lib, unda iqlim o'zgarishiga taalluqli bo'lgan ilmiy dalillarni tasdiqlandi. Bu siyosatchilar va xalqaro hamjamiyatga katta ta'sir ko'rsatib, iqlim o'zgarishi xalqaro Konvensiyasining tuzilishi haqidagi muzokaralarning boshlanishiga asos yaratdi. Ikkinchi Baholash Dokladi 1995 yilda tayyorlanib, BMTning Iqlim O'zgarishi bo'yicha Doiraviy Konvensiyasi Kioto Protokolining 1997 yili qabul qilinishiga qaratilgan muzokaralarga katta ta'sir ko'rsatdi. Uchinchi Baholash Dokladi 2001 yilda tayyorlangan bo'lib, u iqlim o'zgarishlariga taaluqli ilmiy, texnik va ijtimoiy-iqtisodiy ma'lumotlarning har tomonlama va zamonaviy baholanishi bilan xarakterlanadi. Guruh tomonidan To'rtinchi Baholash Dokladi 2007 yilda tayyorlandi. Unda “iqlim o'zgarishi jarayonlariga antropogen ta'sirlar tabiiy omillardan ko'ra 20 marta ko'proq ta'sir qilayotganligi” ta'kidlanadi.

Mana shunday ma'lumotlarni chuqur tahlil qilgan holda bugun sayyoramizda yuz berayotgan iqlim o'zgarishlari bilan shug'ullanib kelayotgan mutaxassis-olimlar “issiqxona gazlarining miqdorini iqlim tizimiga xavfli antropogen almashuvining

oldini oladigan darajada barqarorlashtirish maqsadiga etishish uchun nima qilish zarur”ligi haqida bosh qotirishmoqda. Jumladan, olimlar bu borada quyidagi fikrlarni o’rtaga tashlaydilar:

Birinchi navbatda issiqxona gazlari emissiyasini nazorat qilish majburiyatini olgan mamlakatlar emissiya me’yorlarini kamaytirishga to’la erishishlari lozim.

Barcha sanoat korxonalari tabiiy resurslarni juda samarali ishlatadigan yangi texnologiyalarga o’tishi kerak. Ayniqsa, shart-sharoiti mavjud joylarda shamol, suv va quyoshning kuchi kabi tiklanadigan energiya manbalariga o’tish lozimligi ta’kidlanmoqda.

Fermerlar sholipoyalardan metanning chiqarilishini kamaytiradigan texnologiya va uslublarga intilishlari zarur. Chorvachilik sohasida chorva boshlarining mahsuldorligini oshirish maqsadga muvofiq. Bu chorva sonini va o’z navbatida metan emissiyasini kamaytirish imkonini beradi.

Issiqxona gazlarining atmosferadagi miqdorini kamaytirishda ularning sanoatda chiqarilishini kamaytirish bilan bir qatorda ularning emissiyasini keltirib chiqaradigan transport, turar joy qurilishi, chiqindilarni qayta ishlash va boshqa faoliyat turlari uchun to’g’ridan-to’g’ri javobgar bo’lgan mahalliy boshqaruv idoralarining rolini ham oshirish lozim.

Iqlim o’zgarishlari muammosining salbiy oqibatlarini yumshatish bo’yicha tezkor choralar ko’rilishi zarurligini e’tiborga olgan holda O’zbekiston Respublikasi 1993 yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim O’zgarishi bo’yicha Doiraviy Konvensiyasini, 1998 yil noyabrda esa Kioto Protokolini imzoladi. Kioto Protokoli O’zbekiston tomonidan imzolanganidan so’ng 1999 yil 20 avgustida ratifikasiya qilindi. O’zbekiston Respublikasi Hukumati irlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim O’zgarishi bo’yicha Doiraviy Konvensiyasi bo’yicha majburiyatlarni bajarish vazifasini O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Hidrometeorologiya Xizmati Markazi (Uzgidromet)ga yukladi. O’z majburiyatlariga asosan, O’zbekiston quyidagi masalalar bo’yicha ma’lumot taqdim etadi:

- Milliy sharoitlar va mamlakatning o’ziga xos xususiyatlari;
- Issiqxona gazlarining milliy kadastri;
- Issiqxona gazlari chiqindilarining prognozi;
- Emissiyalarni qisqartirish potensialini baholash va bu uchun zarur bo’lgan choralar ta’rifi;
- Iqlimni kuzatish tizimlari hamda iqlimiy tadqiqotlar;
- Iqlim o’zgarishining oqibatlarini baholash va ularga moslashishning mavjud yo’llari;
- Iqlim o’zgarishi masalalari bo’yicha ta’lim va tushuncha berish;
- BMT Iqlim O’zgarishi bo’yicha Doiraviy Konvensiyasi majburiyatlarini bajarish imkoniyatlarini mustahkamlash.

O’zbekistonda bu borada GEF va BMT Rivojlanish Dasturi yordamida “O’zbekiston – iqlim o’zgarishi bo’yicha mamlakatni o’rganish” loyihasi amalga oshirila boshladi. “Iqlim loyihalari” ustida olib borilgan ishlar natijasida O’zbekistonda issiqxona gazlari chiqindilarini qisqartirish yo’llari aniqlandi. Asosiy yo’nalishlar quyidagilardan iborat bo’ldi:

1. Yoqilg'i-energetika kompleksida issiqxona gazlari emissiyasini qisqartirish;
2. Uy-joy-kommunal sohada energosamaradorlikni oshirish;
3. Neft va gaz sohasida metan oqib ketishini qisqartirish;
4. Yangilanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish.

Bugun respublikada yoqilg'i-energetika ob'ektlarini yangilash, yangilanadigan energiya manbalarini rivojlantirish hamda inson hayot faoliyatida hosil bo'ladigan chiqitlarni utilizasiya qilishga qaratilgan loyihalar va boshqalar ustida ish olib borilmoqda. Xalqaro tashkilotlar yordamida o'rmon o'tqazish va quyosh batareyalarini o'rnatish bo'yicha pilot loyihalari amalga oshirilmoqda.

Iqlim o'zgarishlari muammosi ustida bugungi kunda respublikamizdagi ko'plab mutaxassis olimlar tadqiqotlar olib borishmoqda. Jumladan, bu borada Xorazm vohasi olimlari tomonidan olib borilayotgan keng qamrovli izlanishlar ham diqqatga sazovor bo'lib, bu izlanishlar natijasida quyidagi tavsiyalar ilgari surilmoqda:

1. Iqlim o'zgarishi sharoitida ekinzorlarning mikroiqlimini maqbul ahvolda keltirish. Umuman, mikroiqlimni boshqarish.
2. Suvni tejoychi uslublarni keng qo'llanishi orqali cho'llanish jarayonini sekinlashtirish.
3. Tuproqning sho'rlanish sur'atini keskin darajada sekinlashtirish choralarini ko'rish.
4. Mahalliy daraxtlar yordamida degradasiyalanuvchi erlarda o'rmonchilikni tashkil qilish.
5. Tabiiy sovuqdan maqsadli foydalanish va boshqalar.

Albatta, olimlarimiz tomonidan taqdim qilinayotgan yuqoridagi tavsiyalarni amaliyotga tadbiiq etish usullari ishlab chiqilgan bo'lib, ular bugungi kunda iqlim o'zgarishlarining salbiy oqibatlaridan himoyalashda, qolaversa, qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishga to'g'ri yondashishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, iqlim o'zgarishining fizik, iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy oqibatlari majmuini engish insoniyatning imkoniyatlaridan ustun chiqib qolishi mumkin. Shuning uchun qarorlarni qabul qilish uchun javobgar shaxslar ushbu choralarni amalga oshirish yanada qiyinroq bo'lib qolishidan oldin zudlik bilan iqlim o'zgarishi bo'yicha global strategiyasini amalga oshirishga kirishishlari lozim.

БОБУР - ЎЗ ДАВРИНИНГ БУЮК ГЕОГРАФИ **В.Исақов, А.Отабоев**

Биз мамлакатларимизнинг дўстлик ва ҳамкорликда бир бирига таъсир этиб узок йиллар давомида яратган беҳисоб моддий ва манавий бойликлари билан фахрланамиз.

Узоқ ўтмишда ижтимоий ҳаётнинг кўпгина соҳаларида муҳим рол ўйнаган йирик сиймолардан бири – Захириддин Муҳаммад Бобур (1483-1530) ўз даврида истедодли лашкарбоши ва давлат арбоби, талантли ёзувчи ва санъат, адабиёт ҳамда фаннингқадрини биладиган сиймо ҳисобланади.